Ta'lim inson shaxsini toʻla barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmogʻi lozim. Ta'lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar oʻrtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va doʻstlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak". [2]

Jahonning koʻlami jihatidan keng va eng nufuzli yuridik hujjatida ushbu normalarni qayd etilishi bu dunyodagi har bir insonning bilim olishini eng muhim va huquqi ekanligini anglatadi. Ma'lumki, xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilgan har bir mamlakat xalqaro huquqiy hujjatlardagi normalarni ijro etishi bu majburiyat sanaladi. 1991-yil 30-sentyabrda ayni "Inson huquqlari boʻyicha umumjahon deklaratsiyasi"ni ratifikatsiya qilgan Oʻzbekiston oʻzining asosiy hujjati, ya'ni Konstitutsiyada alohida e'tibor berib, bilim olish huquqlarini mustahkamlab qoʻygan. Unga koʻra xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti boʻlgan Oʻzbekiston belgilab qoʻyilgan xalqaro huquq normalari va prinsiplariga amal qilishini ifoda etadi. 2023-yil

30-aprelda referendum asosida qabul qilingan, muallifi Oʻzbekiston xalqi boʻlgan yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi normalarga koʻra endilikda Oʻzbekiston barcha fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ifodalaydigan ijtimoiy davlat maqomining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari yaratildi. Bu ayniqsa, izchil ijtimoiy siyosatni amalga oshiriladigan mamlakat sharoitida yaqqol oʻz ifodasini koʻrsatadi. Zotan ijtimoiy davlat fenomeni inklyuzivlik tushunchasi bilan bir birini toʻldiradigan mantiqiy tushunchalar hisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy tengsizlik va turli tafovutlarni ayni inklyuzivlik jarayoni muvozanatga keltiradi. Shu jihatdan ushbu tadqiqot ishida ilgari surilgan fikr, ya’ni hech bir mamlakat ta’lim tizimida inklyuzivlikni ta’minlamay turib, bilim olish huquqlarini hamma uchun kafolatlay olmaydi. Davlat siyosiy tashkilot sifatida jamiyatga rahbarlik qilishi va ijtimoiy boshqaruvni amalga oshirishni hisobga olsak, inklyuzivlik davlat siyosatining eng muhim yoʻnalishi hisoblanadi.

Ayni munosabatlar esa huquq normalari bilan tartibga solinadi. Ta’lim olish insonning uzviy huquqi ekanligidan kelib chiqqan holda fuqarolarning ijtimoiy holati turlicha ekanligini hisobga olsak, har qanday sharoitda ham ta’lim olish imkoniyatlari, xususan maxsus ta’lim ehtiyojiga ega kishilar uchun moslashtirilgan imkoniyatlari huquq asosida kafolatlanadi. Shuning uchun ham davlatning ijtimoiy tabiati huquqiy asoslar bilan mustahkamlanadi.

Tan olish kerakki, huquqiy demokratik mamlakatlar sharoitida barcha sohalar qatori ta’lim sohasi xususan, inklyuziv ta’limni rivojlantirishning huquqiy asoslari mustahkamlanmas ekan ta’lim tizimida qoʻllaniladigan  amaliyot va ilgʻor tajribalar oʻz samarasini bermasligi mumkin. Chunki sohadagi munosabatlarni tartibga solish va tizimli rivojlanish yoʻnalishlarini belgilab beruvchi omil bu huquqiy omil hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining huquqiy tabiatiga koʻra amalga oshiriladigan har qanday islohotlar, avvalo, qonun normalari bilan mustahkamlanadi. Birgina misol ta’limni rivojlantirishning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari ham asosiy qonun darajasida e’tirof qilingan. Aniqroq qilib aytganda, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga koʻra “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy oʻrta ta’lim va boshlangʻich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy oʻrta ta’lim majburiydir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy oʻrta ta’lim davlat nazoratidadir.

Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega boʻlgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.” [3] Davlat ta’lim sohasida bajaradigan funksiyalarning qamrovi jihatdan kengligi va mazmunan boyligi bu uning progressiv ta’lim siyosatida koʻrinadi. Yuqorida keltirib oʻtilgandek, uzluksiz ta’limning har xil turlarini tashkil etish va rivojlantirish masalasiga inklyuziv yondashuvni koʻrishimiz mumkin. Ya’ni qamrov jihatdan barcha masalalarni oʻz ichiga oladigan ta’lim turlarini tashkil etish va takomillashtirishning huquqiy asoslari ham Oʻzbekiston Respublikasining “Ta’lim toʻgʻrisidagi” qonunda mustahkamlab qoʻyilgan. Ushbu qonunning 7-moddasiga koʻra ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy oʻrta va oʻrta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;

- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim. [4]

Qonun hujjatlarida aks etgan ushbu normalarni amaliyotga tatbiq etish orqali ta’lim tizimi harakatga keltiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining ta’lim olish huquqlarining kafolatlanishi va uzluksiz ta’limni rivojlantirishga oid tahlil qilinayotgan mazkur normalarning ajralib turuvchi xususiyati shundaki, har bir insonning nafaqat bilim olish huquqlarini, balki ta’lim tizimini rivojlantirish orqali inson huquqlarini oliy darajada qadrlanishini anglatadi. Shuningdek asosiy qonunning 50-moddasida keltirib o‘tilgan yana bir norma, ya’ni ta’lim olish shakllari har bir insonning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirilgan shart-sharoitlar yaratib berilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Bu borada “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 15-moddasiga ko‘ra ta’lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy); dual ta’lim;
- oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;
- katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;
- inklyuziv ta’lim;
- eksternat tartibidagi ta’lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.[5]

Ushbu qonun doirasida ta’lim oluvchilar uchun zarur shart-sharoitlarning huquqiy asoslari yaratilganligini va asosiy qonun, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan har kimning bilim olish huquqlari kafolatlanishi va davlat uzluksiz ta’limni rivojlantirishga oid normalarga mutanosibligi va qonuniy jihatdan mantiqiy ketma ketlikni ifodalashini ko‘rishimiz mumkin. Ta’limni barcha bosqichlari shakl va turlarini kompleks takomillashtirishning asosiy va to‘g‘ri yo‘li bu inklyuziv yondashuv asosidadir. Chunki inklyuzivlik mazmunan umumiy qamrovni ifodalagan holda ta’lim sohasining har bir jihatiga manzilli yondashish manzarasini o‘zida namoyon etadi. Inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish ham murakkab ham samarali jarayon hisoblanadi. Murakkabligi bu ta’lim faoliyatining har bir jihatiga aniq va to‘liq e’tibor qaratishini taqozo etsa, samaradorligi esa bu sohani barqaror tizimli rivojlanishidadir.

Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning 20-moddasi Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. [6]

Mazmunan shunday aytish mumkinki, ta’lim tizimida inklyuzivlik bu -fuqarolarning imkoniyatlardan kelib chiqqan holatda sifatli ta’lim olish imkoniyatlarining yaratilishidir. Shu o‘rinda inklyuziv ta’limning muhimligi va uning ijtimoiy davlat sharoitidagi ahamiyatining yana bir ustunligini ta’kidlab o‘tish joiz. Ma’lumki, muayyan nogironlik belgilari tufayli ayrim fuqarolar o‘zlarini jamiyatdan ajralgan deb hisoblashib, o‘zlarini o‘zlari kamsitilgandek his

qilishadi. Aslini olib qaraganda bu toifadagi fuqarolar oʻzlarini oʻzlari kamsitishayotgan boʻlishadi. Chunki ularni jamiyatda hech kim faoliyatiga toʻsqinlik qilmayotgan va kamsitmayotgan boʻladi. Biroq muayyan nogironlik belgilari tufayli fuqarolarni maʼlum bir faoliyati bilan shugʻullanishini asossiz cheklashning yuridik javobgarligini kuchaytirish lozim. Lekin bugungi kunda muayyan xatti- harakatlarni amalga oshirishdan maʼno yoʻq degan fuqarolar afsuski yetarlicha topiladi. Ushbu stereotip uzoq yillar davomida shakllangan. Buni birdaniga yoʻqotishning iloji yoʻq, lekin muammoning maqbul yechimi faqat inklyuziv taʼlim orqalidir. Yaʼni taʼlim olish orqali tafakkurning shakllanishi va fikrlashning oʻzgarishi natijasida nogironlik belgilari agar mavjud boʻlsa, har bir insonning isteʼdodini roʻyobga chiqarishga hech qanday toʻgʻanoqlik qilmasligini anglatadi. Shuning uchun ham inklyuziv taʼlim nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yagona davlat taʼlim siyosatini amalga oshirishda inklyuziv taʼlim masalasiga yanada chuqurroq eʼtibor qaratishini va taʼlim muassasalari faoliyatida inklyuziv taʼlim barqarorligini taʼminlash, eng asosiysi esa inklyuziv taʼlim sohasi boshqa sohalar qatori zamonaviy tendensiyalarga muvofiq muttasil takomillashtirilib borilishi kerak. Shiddat bilan oʻzgarayotgan bugungi dunyo zamonaviy ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalar tufayli yangicha qarashlar va imkoniyatlar vujudga kelmoqda. Tabiiyki, bu imkoniyatlardan birinchilar qatoridan foydalangan kishilar va ilgʻor tajribalarni realizatsiya qilgan sohalar boshqa sohalarga qaraganda oldinda boʻladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, inklyuziv taʼlimni yanada takomillashtirib ijtimoiy davlat sharoitidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Natijada jamiyatda inklyuziv taʼlimga boʻlgan ehtiyojidan koʻra qiziqish oshadi. Oʻz navbatida ehtiyojdan koʻra qiziqishning oshishi sohaning rivojlanishini tezlashtiradi. Chunki sohaga yangilik olib kirish faqat bir yoqlama emas, balki umumiy tartibda yondashiladi. Tabiiyki, masʼuliyat va progressiv omillar bor joyda har qanday soha yuksaladi. Yana bir muhim masala inklyuziv taʼlim faqat maxsus taʼlim ehtiyojiga ega kishilar uchun ustuvor boʻlib qolmay, balki inklyuziv taʼlim bilan bogʻliq faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar va idoralar zimmasiga ham yetarlicha masʼuliyat yuklaydi. Bu esa inklyuziv taʼlim sohasiga masʼul boʻlgan kishilar va maxsus taʼlim beruvchi pedagoglarni oʻz ustida yanada ishlashni taqozo etadi. Chunki inklyuziv taʼlim tizimida oʻquvchi-talabalarning malakali kadr sifatida yetishishi ikki omilga bogʻliq: 1. Taʼlim berish faoliyati bilan shugʻullanadigan malakali pedagog omili; 2. Taʼlim muassasasida yaratilishi lozim boʻlgan zarur shart-sharoit omili. Inklyuziv taʼlim oʻquvchi-talabalarning taʼlim jarayonining markazida boʻlishini taʼminlaydi. Yaʼni asosiy eʼtibor taʼlim oluvchilarning sifatli bilim olishi va zarur shart-sharoitga ega boʻlishiga qaratiladi. Inson qadri ustuvor jamiyat va xalqparvar davlat sifatida shakllanayotgan Oʻzbekistonda taʼlim bu inson kamolotining kaliti hisoblanadi. Shu bois har bir inson sifatli bilim olishini taʼminlash bu insonda insoniylikni yuksak qadrlashini anglatadi. Shu nuqtai nazardan inklyuziv taʼlim hech bir taʼlim oluvchini eʼtibordan chetda qoldirmasligi bilan ahamiyatlidir. Jamiyatda muayyan tengsizliklar va turli tafovutlar, eng asosiysi dogmatik qarashlar va stereotiplarni bartaraf qilish uchun toʻsiqsiz muhit shakllanishi lozim. Bu esa fuqarolarni hamjihat, millatidan qatʼiy nazar tinch va totuv yashashiga zamin yaratadi. Yaʼni guvohi boʻlishimiz mumkinki, inklyuziv taʼlim bu umumiy farovonlik va bagʻrikenglikni ifodalovchi fundamental mazmun-mohiyatga ega boʻlib teng huquqli munosabatlarni qaror toptiradi. Qaysiki, jamiyatda imkoniyati cheklangan fuqarolarga yoki boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar uchun zarur shart-sharoit yaratilgan boʻlsa, demak oʻsha jamiyatda hamma uchun imkoniyatlar yaratilgan boʻladi. Chunki jamiyatning muhofazalanadigan ijtimoiy qatlami muayyan huquqlardan foydalanishi va xatti-

harakatlarini amalga oshirish imkoniyatlari shu jamiyatning boshqa a’zolarining imkoniyatlari bilan tenglashtiriladi. Muvozanatli ijtimoiy siyosatning natijasi bu har bir insonning huquq va qobiliyatlarini hurmat qilish, ularni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratilishida ko‘rinadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy farovonlikni oshishi davlatning ijtimoiy davlat sifatida barqaror siyosat yuritishidan dalolat beradi. Ayni masalalar tahlilidan ko‘rishimiz mumkinki, inklyuziv ta’lim bu ijtimoiy davlat sharoitida yuksak ahamiyatga ega bo‘lib, u jamiyat hayotida turli tengsizlik va nomutanosibliklarni bartaraf qilish uchun ijobiy yechim bo‘la oladi. Hayot suratlari tezlashayotgan bugungi davrda zamonaviy transformatsiya va tendensiyalar hech bir sohaga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmayapti. Shu jumladan, inklyuziv ta’limni takomillashtirib borish sohadagi muayyan muammolarni bartaraf qilish bilan bir qatorda sohaga yangi nou-haularni olib kirishni taqozo etadi. Avvalo, ta’limda inklyuzivlikni ta’minlash bo‘yicha asosiy fanlarni rivojlantirish va ayni fanlar bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlashlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Misol uchun eshitish qobiliyati zaif bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganuvchi surdopedagogika va surdopsixologiya. Aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarni o‘rganuvchi oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya, ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalashni o‘rganuvchi tiflopedagogika va tiflopsixologiya. Korreksion pedagogika tarkibiga kiruvchi ushbu pedagogik tarmoqlar muayyan nuqsoni bor bo‘lgan kishilarga alohida yondashuv asosida ularni jamiyatga integratsiyalaydi. Shu jihatdan ushbu masalaga chuqur va alohida yondashishi lozim. Shuningdek, inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun an’anaviy ta’lim menejmenti o‘rniga zamonaviy inklyuziv ta’lim menejmentiga alohida urg‘u qaratish zarur. Inklyuziv ta’lim menejmenti bu ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish va istiqboliga doir masalalarni ayni inklyuzivlik asosida yondashishdir. Zamonaviy inklyuziv ta’lim menejmenti an’anaviy ta’lim menejmentidan chuqur va universal ahamiyatga ega ekanligi bilan farqlanib, nisbatan yangi mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv faoliyati hisoblanadi. Yuqorida mavjud muammolarga qarshi kurashadigan pedagogika tarkibidagi pedagogik tarmoqlarni alohida ko‘rsatib o‘tdik. O‘z navbatida o‘z sohasini rivojlantirish bu faqat sohani muammolardan holi qilish bilan erishib bo‘lmaydi. Sohani rivojlantirish uchun yangicha qarash va amaliyotlar ham zarur bo‘ladi. Bu borada ta’lim tizimining muhim qismi bo‘lgan pedagogik fanlar, ya’ni pedagogik innovatika, pedagogik innovatsiyalarni yuzaga kelishi va rivojlanish qonuniyatini o‘rganadi, pedagogik aksiologiya ta’lim oluvchilar va ta’limni qadriyat deb e’tirof etgan holda ta’limiy qadriyatlarni o‘rganadi. Bundan anglash mumkinki, inklyuziv ta’limni rivojlantirish bu ta’lim beruvchilar ta’lim oluvchilar va ta’lim shart-sharoitlari bilan bog‘liq barcha jarayonlarni inklyuziv progressiv asosda qamrab oladi. Ta’limda inklyuzivlikni ta’minlashdan asosiy maqsad avvalo barcha ta’lim oluvchilarning imkoniyatlarini bir xillashtirish, undan foydalanish esa ta’lim oluvchilarning faqat o‘ziga bog‘liqdir. Bugungi kunda jahonning yetakchi mamlakatlarining ijtimoiy rivojlanishi zamirida jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamining haq-huquqlarini yuksak darajada himoya qilishi mujassamdir. Ijtimoiy davlat sharoitida imkoniyati cheklangan fuqarolar umummajburiy ta’lim bilan cheklanib qolmay, balki barcha darajadagi ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Chunki ijtimoiy davlat va inklyuziv ta’lim tushunchalarning asosiy mazmun-mohiyati bir inson uchun yaratilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarning barcha uchun yaratilishidir. Mamlakatimizda nogironligi bor shaxslar ta’limning barcha bosqichlarida bilim olishi, jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishi

uchun zarur shart-sharoitlar yaratish qonunchilikda alohida belgilab qo‘yilgan. Bu borada 2020-yil 15-oktyabrda qabul qilingan “Nogironligi bor bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni ushbu fikrimizning yaqqol huquqiy asosi bo‘la oladi. Qonunning 38-moddasiga ko‘ra “Nogironligi bo‘lgan shaxslar barcha darajalardagi ta’lim tashkilotlarida ta’lim olish va o‘z qobiliyatini yanada to‘liqroq rivojlantirish uchun butun umri davomida ta’lim olish hamda jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etish huquqiga ega. Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning inklyuziv ta’limini rivojlantirishni, ularning ta’lim olishi va kasbiy tayyorgarlikdan, qayta tayyorlashdan va malaka oshirishdan o‘tishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlaydi.” [7]

Qonunchilikda aks etgan normalar muayyan huquq va imkoniyatlarni nazariy jihatdan mavjudligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, huquqiy-demokratik davlatlarda har bir masalaning dastlab nazariy-huquqiy asoslari yaratiladi. Jumladan muayyan tadqiqot ishlaridan olingan natijalar avvalo nazariy jihatdan bayon qilinadi, so‘ngra huquqiy jihatdan tartibga solinadi. Ya’ni har bir masala nazariy-huquqiy jihatdan tartibga solinganidan keyin amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, ta’limda inklyuzivlikni ta’minlash bo‘yicha bir qator izlanishlar undan olingan natijalar asosida huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Shakllangan qonunchilik bazasi asosida ta’limda inklyuzivlikni ta’minlash nazariyadan amaliyotga ko‘chadi. Bundan shuni tushunish mumkinki, inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim. Chunki inklyuzivlik jamiyatda sog‘lom ijtimoiy ma’naviy muhit va barqaror huquqiy munosabatlarni shakllanishiga zamin yaratadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarlarining “Kuchli ijtimoiy siyosat: mohiyat va imkoniyatlar” nomli qismida quyidagi fikr keltirilgan: “Yangi O‘zbekistonni o‘z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir” [8]. Mazmunan shuni aytish mumkinki, inklyuziv jamiyat barpo qilish yo‘lida ijtimoiy makon yaratish va uning huquqiy asoslarini mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki ijtimoiy makon bu avvalo holatidan qat’i nazar barcha fuqarolarni erkin harakatlanishi va munosib turmush sifatiga ega bo‘lishi uchun zarur shart sharoitlarni yaratadi. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida inklyuzivlik va ijtimoiy tamoyillarni qaror toptirish bu to‘siqsiz muhit shakllanishiga xizmat qiladi. Aynan ushbu to‘siqsiz muhitni avvalo ta’lim muassasalarida ta’minlanishi barcha ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilar uchun erkin harakatlanish imkoniyatini yaratadi. Bu esa ta’lim funksiyasini amalga oshiradigan subyektlar va ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanadigan yuridik shaxslar oldiga ijtimoiy huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni qo‘yadi. Inklyuziv ta’lim va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan islohotlar yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Xususan inklyuziv ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, “Ta’lim to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi qonuni [9], “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni [10] shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [11], “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori [12], “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori [13], “Alohida ta’lim

ehtiyojlari boʻlgan bolalarning taʼlim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori [14].

**Xulosa.** Koʻrsatib oʻtilgan yuqoridagi normativ huquqiy hujjatlar Oʻzbekiston Respublikasida taʼlimda inklyuzivlikni taʼminlash va rivojlantirish boʻyicha zarur tashkiliy va meʼyoriy-huquqiy bazaga ega ekanligini koʻrsatadi. Qonunchilik hujjatlari inklyuziv taʼlimni rivojlantirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi, bu esa barcha taʼlim oluvchilarning qobiliyati, kelib chiqishi yoki nogironlik belgilaridan qatʼi nazar, sifatli taʼlim olishdan teng foydalanish imkoniyatini taʼminlaydi. U tenglikni taʼminlovchi, huquqlarni himoya qiluvchi va taʼlim muassasalari uchun javobgarlikni yaratuvchi va ijtimoiy masʼuliyatini kuchaytiruvchi qonunchilik asoslari, siyosati va yoʻriqnomalarini belgilaydi. Bu borada qonunchilik hujjatlarini inklyuziv taʼlim tizimini takomillashtirishga qoʻshgan hissasi natijasida quyidagilarni keltirib oʻtish mumkin: 1. Taʼlim olish huquqini taʼminlash; 2. Diskriminatsiyaga barham berish; 3. Ijtimoiy integratsiyalash uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash; 4. Taʼlim olish muassasalarining ijtimoiy masʼuliyatini oshirish; 5. Oʻqituvchilar malakasini oshirish va oʻquv dasturlarini inklyuziv standartlarga moslashtirish.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Shavkat Mirziyoev.Yangi Oʻzbekiston strategiyasi -Toshkent. ” Oʻzbekiston”, 2021. –B 224.
2. U.Boʻtayev, N.Latipova, A.Abdulxalilov, N.Saidova. Oliy oʻquv yurtlarida “Toʻsiqsiz muhitni” taʼminlash jarayonlarining metodik asoslari, Toshkent-2022. 21-22 b.
3. Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, “Adolat” milliy huquqiu axborot markazi Toshkent-2023.- 24 b.
4. Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020-yildagi OʻRQ-637-son. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: https://lex.uz/docs/-5013007
5. Oʻzbekiston Respublikasining 15.10.2020-yildagi OʻRQ-641-son “Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlari toʻgʻrisida”gi qonuni. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: https://lex.uz/docs/-5049511
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son. “Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: https://lex.uz/docs/-4312785
7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020-yildagi PQ-4860-son. “Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga taʼlim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: https://lex.uz/docs/-5044711
8. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021-yildagi 638-son. “Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga taʼlim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: https://lex.uz/docs/-5679836
9. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.01.2024-yildagi 46-son. “Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning taʼlim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Oʻzbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: https://lex.uz/docs/-6779571

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 3 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati



**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).